

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI: TASHQI SIYOSATNING STRATEGIK BOSHQARUV VA MUZOKARALAR NUQTAI NAZARIDAN O'RGANILISHI

Ilmiy rahbar:

Malika O'rolova To'liq qizi

G'aybulloyeva Charos O'rinboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning diplomatik siyosatidagi strategik boshqaruv, xalqaro munosabatlar hamda muzokara tamoyillari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Temurning elchilik tizimi, diplomatik maktublari, siyosiy ittifoqlar va geosiyosiy yondashuvlari tarixiy manbalar asosida o'rganilib, uning tashqi siyosiy merosining zamonaviy diplomatiyaga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, Sohibqiron diplomatiyasi asosan uning "Kuch adolatda" tamoyiliga asoslangan holda davlat manfaatlarini himoya qilish va dushman kuchlarini zaiflashtirish kabi jihatlar ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, diplomatiya, tashqi siyosat, strategik boshqaruv, muzokaralar, elchilik, ittifoq.

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Amir Temur faoliyati jahon tarixida alohida ajralib turadi. U bir qatorda yirik sarkarda, shuningdek, yuksak darajadagi diplomat, davlat arbobi sifatida ham tanilgan. Markazlashgan davlat asoschisi Sohibqiron Amir Temurning diplomatik merosi nafaqat Markaziy Osiyo tarixida, balki jahon tarixi sahnasida ham alohida o'ringa ega. Uning tashqi siyosatidagi strategik boshqarish tamoyillari, davlatlararo munosabatlarni tartibga solishdagi yondashuvlari va diplomatik muzokara madaniyati bugungi kunda ham tarixiy tajriba sifatida o'rganilib, zamonaviy diplomatiya amaliyotiga qator ilmiy xulosalar berish imkonini yaratadi. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida tarixiy merosni chuqur o'rganish, xususan, Amir Temur davlatchilik an'analarini ilmiy asosda tahlil qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalishda qator normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmon va qarorlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda qabul qilingan "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 630-son qaror** Amir Temurning tashqi siyosiy tizimi va diplomatik qarashlarini kompleks o'rganish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bugungi globallashtirish sharoitida diplomatiya tizimi chuqur o'zgarib borar ekan, tarixiy diplomatik tajribalar — ayniqsa, strategik boshqaruv asosida shakllangan siyosiy model sifatida — alohida ilmiy



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

ahamiyat kasb etadi.⁸ Shu nuqtayi nazardan, Amir Temur diplomatiyasini strategik boshqaruv va muzokaralar nazariyasi bilan uyg'unlikda o'rganish nafaqat tarixiy jarayonni anglash bilan birgalikda, zamonaviy xalqaro munosabatlar uchun ham katta tarixiy ahamiyatga ega.

Amir Temur diplomatiyasining asosiy mohiyati davlatning siyosiy, harbiy hamda iqtisodiy manfaatlarini uzoq muddatli strategik maqsadlar asosida himoya qila olganida namoyon bo'ladi. Sohibqiron o'z diplomatik siyosatini tasodifiy yoki vaqtinchalik jarayonlar asosida emas, balki puxta o'ylangan konsepsiya, keng qamrovli geosiyosiy nazariya va real kuchlar muvozanatini chuqur hisobga olgan boshqara olgan. Uning diplomatik yondashuvi o'rta asrlar sharoitida strategik ittifoqlar yaratish, lekin davlat manfaatini birinchi o'ringa qo'yish tamoyillari asosida rivojlangan. Amir Temur diplomatiyasi, birinchi navbatda, u boshqargan davlat hududlarining xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, savdo yo'llarini himoya qilish, turli davlatlar bilan siyosiy barqarorlik muhitini yaratish, raqib kuchlarning birlashuviga yo'l qo'ymaslik, manfaatlar nisbatini o'ziga qulay shakllantirish kabi strategik vazifalarga xizmat qilgan. Shuning uchun ham Sohibqironning diplomatik siyosati tarixiy manbalarda "kuchli markazlashgan davlatning diplomatiyasi" sifatida talqin qilinadi.⁹ Amir Temur tashqi siyosatida eng muhim jihatlaridan biri bu elchilik institutining mukammal rivojlanishidir. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, buyuk sarkarda har bir davlat uchun alohida siyosiy-diplomatik yo'l xaritasini ishlab chiqqan, davlatlararo munosabatlar mohiyatini tushunishi, diplomatik vaziyatni siyosiy kontekstda tahlil qila olishi kabi jihatlariga alohida e'tibor qarata olgan. Elchilar orqali turli davlatlar bilan doimiy aloqalar o'rnatilishida Temurning diplomatik maktublari muhim rol o'ynagan. Bu maktublarda u o'z davlatining siyosiy pozitsiyasini aniq, ravshan bayon qilgan, har bir davlatga nisbatan o'z siyosiy niyatini diplomatik uslubda, lekin o'ta lo'nda ifodalagan. Masalan, Xitoy imperatoriga yuborgan maktublarida u "savdo yo'llarining barqarorligi va ikki tomonlama manfaatlar"ni asosiy masala sifatida ko'targan bo'lsa, Yaqin Sharq davlatlariga yo'llagan maktublarida siyosiy turg'unlik, hududiy xavfsizlik va harbiy-siyosiy barqarorlik ustuvor mavzulardan bo'lgan. Bu maktublarning tili, uslubi va mazmuni Sohibqiron diplomatik tafakkurining o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi.¹⁰ Shuningdek, Temur diplomatiyasining yana bir ustuvor jihati — uning strategik ittifoqlar yaratish va dushman kuchlarni tarqoqlashtirishga qaratilgan siyosiy-harbiy uslublardan samarali foydalanganidir. U ko'plab

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda qabul qilingan "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 630-son qaror

⁹ Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma". Toshkent.: Sharq.-1996. 128-129-betlar.

¹⁰ Amir Temur "Temur tuzuklari". Toshkent.: O'zbekiston.-2018. 137-bet.



davlatlar bilan vaqtinchalik yoki uzoq muddatli ittifoqlar tuzgan, diplomatik kelishuvlar orqali o'ziga qulay geosiosiy maydon yaratgan. Ayniqsa, Oltin O'rda, Xuroson, Hindiston, Anqara va boshqa hududlar bilan olib borilgan muzokaralarda Sohibqiron murakkab siyosiy jarayonlarni mukammal tahlil qilganini ko'rish mumkin. U raqib davlatlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlardan foydalangan, o'z davlati manfaatlari uchun eng maqbul diplomatik yechimni tanlagan, kuchlar nisbatini doimiy nazoratda ushlab turgan. Temurning bu yondashuvi uni nafaqat buyuk sarkarda, balki yuksak strategik tafakkur sohibi ekanligini tasdiqlaydi.¹¹

Diplomatik muzokara olib borishda eng muhim tamoyillaridan biri — “murosaga ochiqlik, lekin manfaatlarga xiyonat qilmaslik” bo'lgan. U har bir muzokarada o'z davlatining siyosiy mavqeini mustahkamlashga intilgan, raqib tomonning kuchi va kuchsiz tomonlarini oldindan aniqlagan, diplomatik vaziyatni harbiy-siyosiy strategiya bilan uyg'unlashtirgan. Amir Temurning diplomatik merosi nafaqat davlatlararo munosabatlarni tartibga solishdagi aniq amaliy yondashuvlarda, shuningdek, alohida siyosiy nazariya sifatida ham ahamiyatga ega. U o'z davrida xalqaro tizimda barqarorlik yaratish, iqtisodiy aloqalarni tiklash, savdo yo'llarini himoya qilish, davlatlar o'rtasida manfaatlar muvozanatini saqlash kabi masalalarga katta e'tibor bergan. Bu jarayon Sohibqiron diplomatiyasining faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy va madaniy asosga ega bo'lgan keng qamrovli tizim ekanini tasdiqlaydi.¹² Shu tariqa, Amir Temur diplomatiyasi o'rta asrlar siyosiy tarixida o'ziga xos maktabni tashkil etgan bo'lib, u diplomatik strategiya, siyosiy muvozanat va davlat manfaatlarini himoya qilishning mukammal modelini yaratgan. Uning diplomatik merosi bugungi kunda ham davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar, siyosiy strategiya va muzokaralar olib borish nazariyasida dolzarb qiymatga ega.

Temur o'z diplomatik faoliyatida ikki asosiy yo'nalishga tayanadi: birinchi yo'nalish — strategik xavfsizlikni ta'minlash, ikkinchisi — iqtisodiy va savdo manfaatlarini kengaytirish. Bu ikki yo'nalish o'zaro uyg'unlashib, temuriylar davlatining barqarorligini ayni paytda mustahkamlagan. Temur diplomatik siyosatini olib borar ekan, davlatlar bilan munosabatlarni qat'iy ravishda **ittifoqchilar, raqiblar, mintaqaviy muvozanatni saqlovchi tomonlar**, va **savdo manfaatlarini bilan bog'liq guruhlar**ga ajratgan holda yuritgan. Misol uchun, Oltin O'rda bilan bo'lgan munosabatlarda Temur uzoq muddatli strategik qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga intilgan bo'lsa, Xitoy (Min imperiyasi) bilan aloqalarda iqtisodiy diplomatiya tamoyillariga ko'proq tayanadi. Hindiston bilan munosabatlarda esa harbiy yurishlardan keyingi iqtisodiy qayta tiklanish masalalari ham diplomatik darajada qayta ko'rib

¹¹ Ibn Arabshoh. “Ajaib al-maqdur fi ahvol Timur”. I kitob. Toshkent.: Mehnat-1992. 278-279- betlar.

¹² Якубовский А.Ю. Падение Золотой Орды. В кн.: Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. — М. — Л., 1950, — С. 216-428



chiqilib, u yerda savdo yo'llarining tiklanishi, mahalliy hukmdorlarning bo'ysinish shartlari va soliqlarning standartlashtirilishi kabi masalalarda bitimlar tuzilgan.¹³ Shu bois Temur diplomatiyasi harbiy siyosatning davomchisi bo'lib qolmay, balki uni to'ldiruvchi, kengaytiruvchi va natijalarni mustahkamlovchi siyosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu marosimlar Temur davlatining kuch-qudrati, barqarorligi va madaniy yuksakligini namoyish etish orqali muzokaralarning siyosiy natijalarini oldindan mustahkamlab turardi. Shuningdek, Temurning diplomatiyasi o'sha davrning geosiyosiy sharoitini chuqur tahlil qilgan holda harakat qilishni talab qilgan. Masalan, Usmonli turklari bilan munosabatlarda Temur ikki yo'nalishdan foydalangan: birinchisi — Anadolu hududidagi turk bekliklarini qo'llab-quvvatlash orqali strategik muvozanatni saqlash, ikkinchisi — Bayazid Yildirimning Yaqin Sharqda kengayishiga chek qo'yish. Unga qarshi olib borilgan Anqara jangi diplomatik, harbiy va strategik qarorlarning birlashtirilgan yuksak namunasi bo'lib, bu jarayonning oldingi bosqichlarida yuborilgan elchilar, yozilgan maktublar va o'tkazilgan muzokaralar katta rol o'ynagan. Temurning maqsadi faqat jangsiz g'alabaga erishish bilan bir qatorda, geosiyosiy makonda o'z ta'sir zonalarini mustahkamlash edi.¹⁴

Amir Temur diplomatiyasining yana bir o'ziga xos jihati — **xalqaro savdo yo'llarini himoya qilish va qayta tiklash strategiyasi** edi. Buyuk Ipak yo'lining xavfsizligi Temur davlatining iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida ko'rilgan. Bu yo'ldagi har bir bo'lim — Qashqar, Samarqand, Hirot, Bag'dod va Tabriz kabi markazlar orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq nafaqat iqtisodiy manfaat, balki diplomatik aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Temur tomonidan chiqarilgan diplomatik hujjatlarda savdo karvonlarining himoyasi, bojxona tartiblarining yengillashtirilishi, mahalliy hokimiyatlarining karvonlarga ko'mak berish bo'yicha mas'uliyati qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu esa davlatning iqtisodiy barqarorligiga zamin yaratgan. Misr mamluklari, Xitoy Min sulolasi, Hindiston Dehli sultonligi, Yaqin Sharqdagi turli sulolalar bilan yuritilgan diplomatik yozishmalar Temurning keng va chuqur o'ylangan holda boshqarganini ko'rsatadi.¹⁵ Shu tariqa, Amir Temur diplomatiyasi o'zining keng qamrovi, strategik asoslanganligi, harbiy-siyosiy qarorlar bilan uyg'unlashganligi, savdo-iqtisodiy manfaatlar bilan mushtarak tarzda olib borilganligi va xalqaro maydonda samarali natija berganligi bilan umumjahon diplomatik tarixida alohida o'rin egallaydi.

Amir Temur diplomatiyasining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Temur davlat boshqaruvi tizimida tashqi siyosat harbiy strategiya bilan teng darajada muhim o'rin tutgan bo'lib, uning diplomatik amaliyoti o'z davri uchun yuksak

¹³ Amir Temur. "Temur tuzuklari". - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 27-34, 41-52-betlar.

¹⁴ Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". - Toshkent, 1997. - 245-280-betlar.

¹⁵ Amir Temur "Temur tuzuklari". - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 44-51-betlar.



darajadagi siyosiy tafakkur, geosiyosiy sezgirlik va davlat manfaatlarini uzoq muddatli himoya qilishga qaratilgan puxta rejalashtirilgan siyosiy jarayon bo'la olgan. Temur diplomatiyasi faqatgina elchilar almashinuvi yoki muzokaralardan iborat bo'lmay, balki xalqaro savdo yo'llarini tiklash, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, ittifoqchilik tizimini shakllantirish va davlat obro'sini mustahkamlash kabi ko'p qatlamli strategiyalarni o'z ichiga olgan. U olib borgan diplomatik siyosat harbiy yutuqlarni mustahkamlash va ularni to'liq natijaga aylantirishda hal qiluvchi kuch vazifasini bajargan. Yaqin Sharq, Hindiston, Xitoy, Oltin O'rda, Usmonlilar va boshqa katta davlatlar bilan o'rnatilgan aloqalar Temur davlatining xalqaro maydondagi mavqeini keskin yuksaltirgan.¹⁶ Buyuk sarkarda tomonidan joriy qilingan diplomatik tartib-intizom, xavfsiz savdo yo'llarini yaratish, karvonlarni himoya qilish, elchilar faoliyatiga qat'iy qonuniy asos berilishi kabi bir qator siyosiy mexanizmlar keyingi temuriy hukmdorlar davrida ham davom ettirgan holda mintaqaning siyosiy madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Bu esa Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda, balki yuksak diplomatik maktab yaratgan davlat arbobi sifatida e'tirof etish zarurligini qayta va qayta tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda qabul qilingan "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 630 – son qaror.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma". Toshkent.: Sharq.-1996. 128 – 129 – betlar.
3. Amir Temur "Temur tuzuklari". Toshkent.: O'zbekiston. 2018. 137 – bet .
4. Ibn Arabshoh. Ajaib al-maqdur fi ahval Timur. – Temur hayoti va siyosati bo'yicha o'rta asr arab manbasi. I kitob. Toshkent.: Mehnat. 1992. 278 – 279 – betlar
5. Якубовский А.Ю. Падение Золотой Орды. В кн.: Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М. – Л., 1950, – С. 216 – 328 – betlar
6. Amir Temur. "Temur tuzuklari".- Toshkent: O'zbekiston, 2018. 27 – 31, 41 – 51 – betlar

¹⁶ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent.: Fan, 1997. – 220-240-betlar.



O‘ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

7. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”.- Toshkent, 1997. 245 – 280 – betlar.
8. Amir Temur “Temur tuzuklari”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 44 – 51 – betlar
9. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent.: Fan, 1997. 220 – 240 – betlar